

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди
№ БД-5231300-4.02
2012 йил 14 март

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирининг 2012 йил 14 мартдаги
107 - сонли буйруғи билан
тасдиқланган



Ш. Абдиев

ДАВЛАТНИНГ МАҚСАДЛИ ВА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ
ЖАМҒАРМАЛАРИ

фанининг

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси:	200 000	Ижтимоий соҳа, иқтисод ва ҳуқуқ
Таълим соҳаси:	230 000	– Иқтисод
Таълим йўналиши:	5231 300	– Пенсия иши

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi
yo'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashning
2011 yil 6 martdagi 1 – son majlis bayoni
bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

D.Toshmuxamedova – TMI, “G'aznachilik ishi” kafedrasida katta
o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Toshmatov Sh. – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi, “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d.
(turdosh OTM)

Mansurov Sh. – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi
ijrochi direktorining o'rinbosari (kadrlar
buyurtmachisi)

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti Ilmiy-uslubiy Kengashida
muhokama etilgan va tavsiya qilingan
(2011 yil 26 oktyabr 2-sonli bayonnoma)

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirish davom etmoqda. Umumdavlat moliya tizimining bo'g'ini - davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va xarajatlarini maqsadli yo'naltirilishini samarali tashkil etish amalga oshirilmogda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida real iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida talab etilayotgan ta'lim va mutaxassisliklarning yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish, davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish belgilandi. Shu nuqtai-nazardan ta'kidlash joizki, ushbu tizimga xizmat qiluvchi muayyan bilim va ko'nikmaga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash davr talabidir.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

“Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari” fanining asosiy maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini g'aznachilik tizimi asosida boshqarish va nazorat jarayonlarining muhim yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish; O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; ijtimoiy va iqtisodiy fondlarning moliyaviy jihatlarini ochib berish; maqsadli fondlarni shakllantirishning xorij tajribalarini o'rganish; davlat budjeti tarkibidagi maqsadli fondlarning daromadlarini shakllantirish mexanizmini ko'rib chiqish; Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarni va xarajatlarni boshqarish jarayonlariga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tadbik etish masalalarini aniqlash; O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi sharoitida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini belgilashdan iborat.

Mazkur fanni o'qitishda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardan, shuningdek, o'qitishning interaktiv uslublari va vositalaridan foydalaniladi.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari va ularni shakllanirish hamda xarajatlarni moliyalashtirish munosabatlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga oid bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy va umumiyqisodiy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari va moliyaviy qonunchilik borasidagi yangiliklardan, mamlakat va xorijiy davlatlar Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining budjetning g'azna ijrosi orqali amalga oshirilishi amaliyotidan xabardor bo'lishlari lozim.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mohiyati, zarurligi, belgilari va funktsiyalari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanishi mazmuni, vazifalari, taraqqiyot bosqichlari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish va tartibga solish asoslari;

- xorijiy mamlakatlarda Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyati;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari;

- davlat budjeti va davlatning maqsadli, budjetdan tashqari jamg'armalarining o'rtasidagi munosabatlarning shakllari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish shakllari haqida *tasavvurga ega bo'lishi kerak*.

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish qonuniyatlarini;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini baholash va tahlil qilish uslubiyotini;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining istiqbolini belgilash asoslarini;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatining tashkil etilishi va o'ziga xos xususiyatlarini;

- markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining g'aznachilik tizimi sharoitida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatidagi vakolatlari va hududlar moliyaviy-investitsion faoliyati asoslarini;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish strategiyasi va taktikasini;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi lozim*;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, budjetdan tashqari fondlar ijrosi yakunlarini tahlil etish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish va natijalarini baholash bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining hozirgi zamon holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining nazorat organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari iste'molchilari majburiyatlarini bajarish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining g'aznachilik xizmati ishini tashkil etish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi natijalarini hisob-kitob qilish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish organlari faoliyatida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining amaliyotiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish bo'yicha;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining resurslarini boshqarishning asosiy usullarini, Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining budjetdan tashqari fondlar bo'g'inlarida moliyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari;

- makrodarajada va hududlar miqyosida davlat budjet siyosatining amal qilishi;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'larini investitsiya qilish tamoyillari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining prognozlashtirish usullarini, rivojlanish dasturlarini tuzish asoslari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni optimallashtirishning kontseptual asoslari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari;

- ijtimoiy sohalarni Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'laridan moliyalashtirish mexanizmlari;

- davlat budjeti bilan birgalikda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash usullari;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish usublari;

- barcha darajadagi Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirish va taqsimlashning optimal modelining qurilishi yuzasidan tegishli *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari” fanini o'zlashtirishda o'quv rejasida rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiy nazariya), umumkasbiy (statistika, makroiqtisodiyot, moliyaviy va boshqaruv tahlili, soliqlar va soliqqa tortish) va ixtisoslik (davlat budjeti, davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar, g'aznachilik, davlat pensiya ta'minoti) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Mamlakatda davlatning funktsiya va vazifalarini mablag' bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari umumdavlat moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida davlatning alohida vazifalarini mablag' bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuning uchun Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining alohida talablar qo'yiladi. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining maqsadga muvofiq tarzda o'z vaqtida shakllanishi va ishlatilishini tashkil etish mamlakat ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. “Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari” fani ixtisoslik fani sifatida o'qitiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan; ma'ruza, amaliy darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari haqida tushuncha. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining zarurligi va vazifalari. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining turlari. O'zbekiston Respublikasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy yo'naltirilgan jamg'armalar va ijtimoiy yo'nalishdagi jamg'armalarning amal qilishi. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.

Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ahamiyati

Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati, funksiyalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllanishining zarurligi. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining jamlanma budjet tarkibidagi o'rni. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining funktsional jihatiga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy fondlarga bo'linishi. Ijtimoiy fondlarning tarkibi va faoliyati. Ijtimoiy fondlar faoliyatining zarurligi, funktsional vazifalari, iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari va xususiyatlari.

Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari amal qilishining huquqiy-me'yoriy asoslari

Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslari. Davlat moliyaviy islohotlarini amalga oshirish uchun belgilangan me'yoriy o'zgarishlar. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining g'azna ijrosini ijrosini tashkil etish. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosini amalga oshiruvchi organlar. Davlatning maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning tushumlarini to'plash va taqsimlash. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlarini asoslilikini tekshirish va nazorat qilish. G'aznachilikda Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va narxlar monitoringi. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini boshqarishning tartibga solinishi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarish

Mamlakatda pensiya ta'minotini amalga oshirishda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'рни va ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanish mexanizmi. Pensiya jamg'armasining xarajatlari va ularning tarkibi. Pensiyalarning turlari, ularni belgilash va hisoblash tartibi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga o'tishning xususiyatlari va O'zbekiston Respublikasi «Fukarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining ahamiyati. G'aznachilik tizimi sharoitida mazkur jamg'armani shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida Pensiya jamg'armasi faoliyatining muammolari va ularni bartaraf etish choralari.

Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi ijrosini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati. Mazkur jamg'armani tashkil etilishiga ta'sir etgan ob'ektiv omillar. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning tutgan o'рни. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arman faoliyatidagi moliyaviy muammolar va ularni hal etish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi faoliyati

O'zbekiston Respublikasida Yo'l jamg'armasini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida jamg'armaning tutgan o'рни. Respublika Yo'l jamg'armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi. Yo'l jamg'armasi xarajatlarini amalga oshirish yo'nalishlari. Yo'l jamg'armasining faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Respublika Yo'l jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish.

Davlat mulkini boshqarish bo'yicha Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami faoliyati

Davlat mulk Qo'mitasining maxsus hisob raqamini tashkil etilishi zarurligi va ahamiyati. Davlat mulk Qo'mitasining maxsus hisobraqami daromadlarining shakllanishni boshqarish va tartibga solish. Iqtisodiyotning yangilanishi va

modernizatsiyalashuvi sharoitida Davlat mulk Qo'mitasining maxsus hisob raqami mablag'lari xarajatlarining asosiy yo'nalishlari.

Ta'lim tizimiga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalarning faoliyatini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"ni amalga oshirishda budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasini tashkil etilishining o'rni va ahamiyati va vazifalari. Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi faoliyatini boshqarish. Jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Kitob jamg'armasining mohiyati, mazmuni va zarurligi. Budjetdan tashqari Kitob jamg'armasi faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy resurslarning shakllanishi hamda xarajatlarini moliyalashtirilishi. Ta'lim tizimiga yo'naltirilgan jamg'armalar faoliyatini boshqarish va takomillashtirish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini tashkil etilishining zarurligi, maqsadi va vazifalari. Tashkil etilgan jamg'arma faoliyatini shakllantirish uchun moliyaviy resurslarining shakllanish yo'llari hamda jamg'armaning xarajatlar yunalishlari. Jamg'arma mablag'larining nazoratini tashkil etish. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini samarali boshqarish yo'llari.

Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasi "Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi faoliyatining zarurligi, maqsadi va vazifalari. Jamg'arma moliyaviy resurslarning shakllanishi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasida "Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi faoliyatini boshqarish va takomillashtirish.

Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etish

Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va xususiyatlari. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining tarkibi va

turlari. Jamg'armalar daromadlarining shakllanishi va xarajatlari ijrosining tashkil etilishi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari asosida davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish. O'zbekiston davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari bilan rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalari qiyosiy tahlili.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlari mavzulari:

1. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ahamiyati.
2. O'zbekistonda Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari amal qilishining huquqiy asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarish.
4. Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi ijrosini ta'minlash.
5. O'zbekiston Respublikasi Yo'l jamg'armasi ijrosi ta'minlash.
6. Davlat mulkini boshqarish bo'yicha Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisobraqami faoliyati.
7. Ta'lim tizimiga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalarning g'azna ijrosi.
8. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.
9. Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi.
10. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini boshqarish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy hujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Namunaviy o'quv rejada mazkur fan bo'yicha mustaqil ishlashga tegishli soat ajratilgan bo'lib, unda quyidagilar ko'zda tutilgan: mazkur fan mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlash; tegishli mavzular bo'yicha referatlar yozish; fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fandan tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanga tadbiq etish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritish.

Mazkur fandan talabalar belgilangan mavzulardan biri bo'yicha mustaqil ta'lim kompleksini bajaradilar. Mustaqil ta'lim kompleksida talaba mavzuga oid moliyaviy-budjet qonunchiligi sharxini, budjet amaliyotidagi uslubiy ta'minotni, ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalardagi materiallarning, statistik ma'lumotlarning tahlilini qamrab oluvchi tadqiq namunasini bajaradi va uning natijalari talabalar bilimini baholash reyting tizimi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar ma'ruzalar mavzulari, amaliy mashg'ulotlari mavzulari va bitiruv-malakaviy ishlarining mazmuniga mos keladi va talaba bilimi hamda kasbiy ko'nikmalariga javoban ular tadqiq jarayoni uzluksizligini asoslashga qaratilgan.

Tavsiya etilgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari mohiyati va ahamiyati.
2. Jamlanma budjet tarkibida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining tarkibi
3. O'zbekistonda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini boshqarishning xususiyatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining shakllanishi va moliyalashtirish manbalari.
5. Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma faoliyati.
6. Respublika Yo'l jamg'armasi faoliyatini boshqarish.
 7. Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi faoliyatini boshqarish.
 8. O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatining g'azna ijrosi.
 9. Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining g'azna ijrosi.
 10. Budjetdan tashqari Kitob jamg'armasi.
 11. Dexqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.
 12. O'zbekiston Respublikasi Ipoteka kreditini berishni qullab-quvvatlash jamg'armasi.
 13. Davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob qilish jamg'armasi.
 14. Qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlashni davlat tomonidan qullab-quvvatlash jamg'armasining g'azna ijrosi.

15. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanishi va ulardan foydalanish yo'llari

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida:

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash borasida tegishli ma'ruza darslarida taqdimot texnologiyalaridan;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini ta'minlash ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalardan;

- Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyati ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, amaliy ish o'yini texnologiyalaridan;

- O'zbekiston Respublikasida Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyati amaliyotiga tegishli masalalari bo'yicha tegishli ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mantiqiy fikrlash, aqliy hujum va ta'limning shu kabi zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy

1. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 202 b.
2. Kuchkarov Dj., Printsipi organizatsii kaznacheyskogo ispolneniya Gosudarstvennogo budjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. - T.:Mir ekonomiki i prava. 2005, 138s.
3. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008.
4. G.Qosimova. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008
5. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. “Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.
6. Qo'chqorov T., Xaydarov M. “Davlat budjeti g'azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.

Qo'shimcha

1. Baltina A.M. «Finasovie sistemi zarubejnix stran» Uchebnoe posobie. M.: FiS, 2007 g. 304 str.
2. Kovaleva V.V. «Finansi»,Uchebnik. M.: Prospekt, 2008g. 640 str
3. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv uslubiy qo'llanma, T.: Akademiya. 2005.
4. Finansi. Uchebnik. A. M. Babich, L. N.Pavlova. -M.: ID FBK-PRESS, 2009
5. Internet saytlari:
 - www.mf.uz
 - www.gov.uz
 - www.stat.uz
 - www.treasury.uz
 - www.budget.ru
 - www.cer.uz
 - www.aig.com
 - www.alskom.uz
 - www.uzreport.co

